ISSN:
3060-5045

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



May № 5, 2026

Агробизнес, наука и технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, scienece and technology

№ 083688

Platform & workflow by OJS / PKP

Toshkent-2026

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o‘rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay’atining xalqaro a’zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay’ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma’ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:
Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1165 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil, 26-mayda ruxsat etildi.

“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY *ELEKTRON JURNALI*

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
06.01.06 – Sabzavotchilik
06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
06.01.08 – O‘simlikshunoslik
06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.

M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

ISMANOV IBROXIM NABIYEVICH, YORMATOV ILMIDIN TOSHMATOVICH
Kasbiy etika va buxgalter kasbi: institutsional paradigma va O‘zbekiston amaliyoti.....14
KATTAKISHIYEV BEKNAZAR
Zamonaviy buxgalteriyada tovar-moddiy zahiralar hisobi.....27
USMONOV ADXAMJON A’ZAMJONOVICH
Yoshlarni ish bilan ta’minlashda institutsional hamkorlik samaradorligi.....35
MUSAYEVA NIGORA NURIDDINOVNA, XODJAYEVA SHAHIDA ALISHEROVNA
Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish.....48
NAZIROVA IRODA NIG‘MATJON QIZI
O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirishning milliy iqtisodiy o‘sishga ta’siri: hozirgi holat va istiqbollar.....57
UMAROVA NILUFAR ABDUKAXOR QIZI
To‘qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha ilg‘or mamlakatlarning tajribalari.....63
UZAYDULLAYEV SHERZOD SHUKURULLAYEVICH
Fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasida xalqaro tajriba va milliy yondashuv.....68
DAVLATOV SANJAR ABDIMANNONOVICH, SULTANOV SARDOR XASAN O‘G‘LI
Investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda risklarini boshqarish.....73
TURAYEVA GULIZAHRO
Technological modernization as a driver of grain production efficiency.....83
UMAROVA NILUFAR ABDUKAXOR QIZI
To‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda boshqaruv omillarining roli: nazariy va amaliy yondashuvlar.....88
UMARALIYEV OLIMJON RAUSHANOVICH
Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularning samaradorligini oshirish mexanizmlari.....94
ABDULLAEV MUZAFFAR ABDUJABBAROVICH, SHERMUKHAMEDOV ABBAS TAIROVICH, ALI KONAK
Eco-friendly artificial intelligence on the path of development of Uzbekistan’s regions to effective technologies.....102
SHAROFOVA MA’MURA SOBIRJONOVNA
Tijorat banklarida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri.....108
XABIBULLOXOJI MUHAMMADSOLIH ALISHER O‘G‘LI
O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar: dinamikasi, tuzilishi va barqaror rivojlanishga ta’siri.....117
DILNOZA YULDASHEVA BEKMURODOVNA, ALISHEROV AKMAL
Ingliz tilidan kirgan iqtisodiy terminlar.....130
АКТАМОВА ИРОДАБОНУ АКРАМ КИЗИ
Стратегические направления повышения экономической эффективности технологий выращивания томатов в теплицах.....138
ABDUMO‘MINOV AXRORJON AXATJONOVICH
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda xalqaro hamkorlikning o‘rni.....145

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO‘YICHA ILG‘OR MAMLAKATLARNING TAJRIBALARI

UMAROVA NILUFAR ABDUKAXOR QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Innovatsion menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail: n42361502@gmail.com
ORCID: 0009-0009-0646-4184

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo‘nalishlari hamda ilg‘or mamlakatlar tajribalari tahlil qilinadi. Xususan, texnologik modernizatsiya, innovatsion boshqaruv, eksport salohiyatini kengaytirish va brending strategiyalarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda qo‘llanilayotgan samarali mexanizmlar asosida milliy korxonalar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoatida barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, innovatsiya, eksport salohiyati, ilg‘or tajriba, modernizatsiya, sanoat rivoji, boshqaruv strategiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные направления повышения конкурентоспособности предприятий текстильной промышленности, а также анализируется опыт развитых стран. Особое внимание уделяется вопросам технологической модернизации, инновационного управления, расширения экспортного потенциала и формирования брендинговых стратегий. На основе передового зарубежного опыта разработаны рекомендации по совершенствованию деятельности национальных предприятий. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для обеспечения устойчивого развития текстильной отрасли.
Ключевые слова: текстильная промышленность, конкурентоспособность, инновации, экспортный потенциал, передовой опыт, модернизация, развитие отрасли, стратегия управления.

Abstract. This article examines modern approaches to enhancing the competitiveness of textile industry enterprises and analyzes the experience of advanced countries. Particular attention is given to technological modernization, innovative management, expansion of export potential, and branding strategies. Based on international best practices, recommendations are developed to improve the performance of national enterprises. The research findings have significant scientific and practical importance in ensuring sustainable development of the textile industry.
Keywords: textile industry, competitiveness, innovation, export potential, advanced experience, modernization, industrial development, management strategy.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi raqobat tobora kuchayib borayotgan bir paytda, to‘qimachilik sanoati iqtisodiyotning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tarmoq nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va milliy iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda raqobatbardoshlikni ta’minlash faqatgina ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan cheklanib qolmay, balki mahsulot sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish hamda bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytirishni talab etadi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatida yuqori natijalarga erishish uchun ilg‘or texnologiyalar, ilmiy yondashuv va zamonaviy marketing strategiyalarini uyg‘unlashtirish zarur.

So‘nggi yillarda dunyoning yetakchi davlatlarida to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar, jumladan, klaster tizimi, raqamlashtirish jarayonlari, ekologik toza ishlab chiqarish hamda brend yaratish strategiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tajribalarni o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish mahalliy korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi to‘qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To‘qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Raqobatbardoshlik tushunchasi korxonaning bozor sharoitida samarali faoliyat yuritish, mahsulot sifati va narx jihatidan ustunlikka erishish hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Xususan, Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasiga ko‘ra, korxonalar xarajatlar yetakchiligi, differensiallashuv va fokus strategiyalari orqali bozorda ustun mavqega ega bo‘lishi mumkin[1]. Bu yondashuv sanoat tarmoqlarida, jumladan to‘qimachilik sohasida ham keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, Joseph Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi[2]. Uning fikricha, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlar korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u texnologik, tashkiliy va bozor omillarini o‘z ichiga oladi. Turli ilmiy manbalar asosida ushbu omillar quyidagicha tizimlashtirilgan.

1-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatida eng yuqori ta’sirga ega omillar sifatida texnologik modernizatsiya, eksport salohiyati va klaster tizimi alohida ajralib turadi.

1-jadval

To‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshiruvchi asosiy omillar

№	Raqobat omili	Mazmuni	Ilg‘or mamlakatlar tajribasi	Ta’sir darajasi
1	Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy uskunalar va avtomatlashtirish	Germaniya, Janubiy Koreya (Industry 4.0)	Juda yuqori
2	Innovatsion boshqaruv	Raqamli boshqaruv va samarali menejment	AQSh, Yaponiya (Lean, Agile tizimlari)	Yuqori
3	Eksport salohiyati	Xalqaro bozorlarga chiqish	Xitoy, Turkiya	Juda yuqori
4	Brending va marketing	Milliy va global brend yaratish	Italiya (moda sanoati)	Yuqori
5	Klaster tizimi	Ishlab chiqarish zanjirini integratsiya qilish	Xitoy, Turkiya	Juda yuqori
6	Ekologik ishlab chiqarish	“Yashil iqtisodiyot” tamoyillari	Yevropa Ittifoqi	O‘rta-yuqori

Ushbu omillar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va global raqobatda ustunlikka erishishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur omillarning nisbiy ahamiyati quyidagi grafikda ifodalangan.

2-jadval

Raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi omillar ulushi

Texnologik modernizatsiya	(90%)
Eksport salohiyati	(85%)
Klaster tizimi	(85%)
Innovatsion boshqaruv	(75%)
Brending va marketing	(70%)
Ekologik ishlab chiqarish	(65%)

Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy to‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishda texnologik yangilanishlar va eksportga yo‘naltirilgan strategiyalar eng yuqori ustuvorlikka ega. Shu bilan birga, klaster tizimi va innovatsion boshqaruv ham korxonalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish kompleks yondashuvni talab etadi va bu jarayonda xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda milliy sharoitga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ko'rsatkichlari, "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi hisobotlari hamda 5 ta yirik klaster korxonalarining 2023–2025 yillardagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari asosida shakllantirildi. Qiyosiy tahlil (Benchmarking): Tadqiqotda an'anaviy boshqaruv tizimidagi korxonalar bilan raqamli boshqaruv va "Lean" tamoyillarini joriy etgan korxonalarning KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) o'zaro solishtirildi. Ekonometrik baholash: Boshqaruv innovatsiyalarining (mustaqil o'zgaruvchi) mahsulot tannarxi va korxona rentabelligiga (bog'liq o'zgaruvchi) ta'sirini aniqlash uchun statistik korrelyatsiya usulidan foydalanildi. To'qimachilik korxonasi yaxlit bir tizim sifatida ko'rilib, undagi ishlab chiqarish, logistika va kadrlar boshqaruvi jarayonlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish ko'p omilli yondashuvni talab etadi. Xususan, texnologik rivojlanish, innovatsiyalar, eksport strategiyasi va klaster tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlili asosida to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni ta'minlash modellari o'zaro solishtirildi.

3-jadval

To'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlik bo'yicha mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlili

Mamlakat	Asosiy strategiya	Kuchli jihatlari	Natija (sanoatdagi o'rni)
Xitoy	Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish	Past tannarx, yuqori hajm	Jahon yetakchi eksportyor
Turkiya	Klaster va tezkor ishlab chiqarish	Logistika va geografik ustunlik	Yevropa bozorida kuchli o'rin
Janubiy Koreya	Innovatsion texnologiyalar	Raqamli ishlab chiqarish	Yuqori sifatli mahsulotlar
Italiya	Brending va dizayn	Moda dustriyasi	Premium segment yetakchisi
O'zbekiston	Modernizatsiya va klasterlash	Rivojlanayotgan eksport salohiyati	O'sish bosqichida

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'zining tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli strategiyalarni qo'llagan. Masalan, Xitoy past xarajatli ishlab chiqarish orqali global bozorda yetakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Italiya brending va dizayn orqali yuqori qo'shimcha qiymat

yaratishga erishgan. Janubiy Koreya esa innovatsion texnologiyalar asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqishni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekiston esa hozirda klaster tizimini rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bosqichida bo‘lib, xalqaro tajribalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatiga ega. Mazkur jarayonni nazariy jihatdan asoslashda Michael Porter tomonidan ilgari surilgan raqobat ustunligi modeli muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, korxonalar xarajat, differensiallashuv va fokus strategiyalari orqali bozor ustunligiga erishadi. Shuningdek, Joseph Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlaydi. Bu esa to‘qimachilik sanoatida yangi texnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Global qiymat zanjiri yondashuvi esa World Bank tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish tizimiga integratsiyalashuvi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida ko‘rsatiladi[3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish ko‘p bosqichli va murakkab jarayon bo‘lib, u ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat, boshqaruv tizimi va tashqi bozor strategiyalarining uyg‘unligini talab etadi. Globallashuv sharoitida ushbu soha korxonalari faqat ichki imkoniyatlarga tayanib qolmasdan, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish orqali o‘z raqobat mavqeini mustahkamlashi zarur.

Ilg‘or mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatida yuqori natijalarga erishish asosan texnologik modernizatsiya, klaster tizimini rivojlantirish, innovatsion boshqaruvni joriy etish hamda brending strategiyalarini kuchaytirish bilan bevosita bog‘liq. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish korxonalar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, eksportga yo‘naltirilgan siyosat yuritish global bozorda mustahkam o‘rin egallash imkonini beradi. Nazariy jihatdan esa Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi modeli hamda Joseph Schumpeter ning innovatsion rivojlanish konsepsiyasi ushbu sohani tahlil qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun innovatsiya va strategik boshqaruvning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Shuningdek, World Bank va International Textile Manufacturers Federation tomonidan taqdim etilgan tahlillar global to‘qimachilik bozorida raqobat tobora kuchayib borayotganini va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish muhimligini tasdiqlaydi[4].

Birinchidan, to‘qimachilik korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, jumladan raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalarini kengaytirish zarur. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, klaster tizimini yanada rivojlantirish orqali xomashyo yetkazib berishdan tortib tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni integratsiya qilish lozim. Bu xarajatlarni kamaytirish va sifatni oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, milliy to‘qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyatini kengaytirish uchun xalqaro standartlarga moslashuv, marketing strategiyalarini kuchaytirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish muhimdir.

To‘rtinchidan, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalarni oshirish va yangi mahsulot turlarini yaratish raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, to‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish kompleks yondashuvni talab etadi va bu jarayonda innovatsiya, texnologiya va strategik boshqaruvning uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review.https://hbr.org/03/the-competitive-advantage-of-nations
2. Schumpeter J. A. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers. https://www.jstor.org/stable/1821084
3. World Bank (2020–2024). Global Value Chain Development Report. https://www.worldbank.org/en/topic/trade/publication/global-value-chain-development-report
4. International Textile Manufacturers Federation (ITMF). (2023–2025). Textile Industry Reports. https://www.itmf.org/publications/
5. OECD (2023). Innovation and Productivity in Manufacturing Industries. https://www.oecd.org/innovation/
6. Abduraxmonov M. Innovatsion iqtisodiyot va raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2022–2024. Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida iqtisodiy ko‘rsatkichlar. Toshkent.
8. Porter, M. E. 2008. The five competitive forces that shape strategy. Harvard Business Review, 86(1), 78–93.
9. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120.
10. Xolbo‘tayev I. Strategik menejment va korxona raqobatbardoshligi. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020.
11. Tursunov B.O. Innovatsion menejment va raqobat ustunligi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
12. Usmonov N.J. Strategik rejalashtirish va boshqaruv samaradorligi // TDIU ilmiy axborotnomasi. — 2021. — №2.
13. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2022–2024. Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tahliliy hisobotlar. Toshkent.

2026-yil, may. №5-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami:**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**